

XORIJIY TIL O'RGANISHNI BOSHQA FANLAR BILAN O'ZARO BOG'LASH

G'oyibjonova Gulnigor Gofurjon qizi

*O'zbekiston Respublikasi Farg'ona viloyati
Oltiariq tumani 18-umumta'lim maktabi o'qituvchisi,*

Zulxumor Dadaboyeva Ma'mirjonovna

*O'zbekiston Respublikasi Farg'ona viloyati
Oltiariq tumani 42-umumta'lim maktabi o'qituvchisi,*

Anotatsiya: *xorijiy tilni o'rganishda boshqa fanlararo bog'liqlikni qo'llash va foydalanishning natijalari.*

Kalit so'zlar: *lug'at, yangi so'zlar, ko'p qo'llash, xotirani mustaxkamlash va boshqa xollarda qo'llash.*

Til bevosita tafakkur bilan chambarchas bog'liqdir. Tafakkur faqat insonga xosdir. U kishilarning mehnati va nutq faoliyati bilan bog'liq holda mavjud. Inson tafakkuri nutq bilan yuzaga chiqadi va uning natijalari tilda qayd etiladi.

Til kishilarning bir-birlarini bilishlari do'stlashishlarida beboha vosita ekanligini yana bir bor aytish mumkin. Maktab, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida ikkinchi til tushunchasi, o'zbekcha o'qiydiganlar uchun rus tili, ruscha ta'lim oluvchilar uchun o'zbek tili demakdir.

Biz hozir XXI asr ya'ni "axborot texnologiyalar" asrida yashamoqdamiz. Kompyuter texnologiyalari va xorijiy tilni bilmay turib yetuk mutaxassis bo'lish va vatan ravnaqiga hissa qo'shish qiyin.

Leksik materialni o'rgatishga qo'yiladigan dasturiy talablar maxsus metodik usullar yordamida ishlab chiqishni taqazo etadi. Mazkur masala yuzasidan o'tkazilgan ilmiy tadqiqotga binoan quyidagi usullarga amal qilinadi:

1. Chet tili o'rgatishda lug'atni oqilona chegaralash prinsipi tanlash mezonlari majmui leksik birliklar xususiyatlarni to'liq hisobga olish uchun xizmat qiladi; tanlash birliklari mezonlar bilan muvofiqlashtiriladi.

2. Til o'qitishda leksik birliklar taqdimoti muayyan maqsadga qaratilganligi usuli: leksik operatsiyani mustahkamlash uchun qo'llanadigan birliklar aniq ko'nikmani xosil qilishga mo'ljallanadi va boshqa birliklar bilan uyg'un xolda ishlatiladi.

3. Leksik birliklarni lingvistik xususiyatlarini va ularni o'zlashtirishga aloqador psixologik tabiatini hisobga olish prinsipi: taqdimot va mashq davralada leksik birliklarning mavxum tushuncha ifodalaydiganlari tariflash vositasida, narsaga tegishlilari ko'rgazmalilik yordamida, sistema xosil qiladigan (ma'nodosh, teskari ma'noli mavzuga oid, mas dunyo tomonlarini - sharq, g'arb, janub, shimol ifodolovchi) leksik birliklar qiyoslash va guruxlash yo'li bilan, funksional (yordamchi) so'zlar esa kontekstda beriladi.

4. Ta'limning didaktik va psixologik qonuniyatlarini hisobga olish usuli: har bir leksik birlik taqdimot, mashq qilish va qo'llash bosqichlarida borgan sari kengaytirilib, ya'ni mano doirasi, tovush va yozish timsollari va turli birikmalarda, kontekst hamda guruxlarda qo'llanilishi izchillik bilan o'rgatib boriladi.

5. Naqd (real) lug'at boyligini, yangi so'z ma'nosiga asoslangan tarzda faxmlashni ta'minlash va hufiya lug'atni shakillantirishda o'zaro bog'liqlik usuli, har uchala vazifa faol, bir-biriga bog'liq va izchil bajariladi.

6. Ma'naviy (semantik umumlashtirishga suyanib ish ko'rish usuli; leksik birlik mazmun planini tahlil etish yo'li bilan birliklar o'rtasidagi va ko'p ma'noli birlikning semantik variantlari orasidagi o'xshashlik hamda tafovut belgilarini aniqlashga erishiladi. Bunday tadbir so'z ma'nosini ochish, binobarin, o'quvchilar nutqida leksik birlikni o'rinli qo'llash va to'g'ri tushunishni osonlashtirishga yo'llaydi .

7. Nutq malakalarini o'stirish va shu jarayonda leksikani egallashni birga olib borish usuli; leksikani egallash jarayoni materialni o'zlashtirish va ko'nikmalarni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Hozirgi paytda til o'qitish uslubi fanni oldiga qo'yilayotgan vazifalaridan biri bu tilni aloqa vositasi sifatida o'rgatishdan iboratdir. Darxaqiqat, avval til o'qitishdagi asosiy vazifa tilni sistema sifatida o'rgatishdan iborat bo'lgan hozirda esa tilni aloqa vositasi sifatida o'rgatishda zarurati va shu bilan bog'liq talab kelib chiqmoqda.

Hozirgi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalari, axborot-kommunikasiya texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanayotgani o'quv muassasalarida ta'lim-tarbiya sifati va mazmunini muntazam ravishda yangilab, boyitib borishni talab etmoqda. Ayniqsa, respublikamiz ta'lim-tarbiya tizimi oldida turgan bosh maqsadi - o'sib kelayotgan yosh avlodning dunyoqarashi, mantiqiy fikrlash qobiliyati, aqliy salohiyatini rivojlantirish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini tarkib toptirish, jamiyatda o'z o'rnini egallashga qodir bo'lgan ma'naviy barkamol insonlarni yetishtirishda tabiiy fanlar jumladan kimyo faninig o'rni beqiyosdir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo ta'limining ahamiyati uning texnika va texnologiya taraqqiyotida, ishlab chiqarish sohasida, kundalik hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi. Ta'lim jarayoniga o'qitishning yangi texnika vositalari, eng so'nggi kompyuterlar, axborotlarning kirib kelishi nafaqat ta'lim oluvchilar balki biz ta'lim beruvchilarning ham o'z ustida muntazam ishlashi, o'z pedagogik bilim saviyasi, malaka va ko'nikmalarini doimiy ravishda oshirib borish zarurligini ko'rsatmoqda. Pedagogik texnologiya- bu shaxsni

o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonuniyatlarini o'zida jo qilgan va yakuniy natijani ta'minlaydigan pedagogik faoliyatdir. Pedagogik texnologiya tushunchasi tartibga solib turuvchi ta'sir etish kuchiga ega bo'lib o'qituvchilarni yangicha tafakkurlashga, erkin ijod qilishga undaydi. Har bir dars o'quvchilarning bilimga qiziqishlarini va mustaqil ravishda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishi uchun o'qitish samaradorligi va sifatini to'xtovsiz oshirish vazifasi ilgari surilmoqda. Pedagogik texnologiya doimo ta'lim maqsadini aniq o'rnatishdan boshlab to uning natijalarini baholashgacha bo'lgan

bosqichlarning har biri uchun ijodiy faoliyatni talab etadi. Ijodiy faoliyat esa o`qituvchilar oldiga juda katta ma`suliyat yuklaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tolipov O.Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiyaning tadbqiqiy asoslari Toshkent: "Fan" 2006
2. Asqarov I.R., To`xtaboyev N.X., G`opirov K. Kimyo 8 sinf darsligi Toshkent: "Yangiyul polygraph service" 2019
3. Aniq va tabiiy fanlarni o`qitishning zamonaviy metodologiyasi. Forum materiallari to`plami Toshkent-2016.
4. Maktabda kimyo jurnali 2019 yil 9 son
5. www.ZiyoNet.com